

**IMPROVING THE PROCESS OF USING PEDAGOGICAL DESIGN AND
VITAGENIC EDUCATIONAL OPPORTUNITIES IN THE DEVELOPMENT OF
SPEECH COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS**

Yuldasheva Dilafruz Makhammadaliyevna

Senior lecturer, Fergana State University

Doctor of Science in philology (DSs)

Matkarimova Shakhnoza Makhamajanovna

16-State Preschool Educational Institution Methodologist

Annotation: The article will focus on practical activities and their content on improving the process of using pedagogical design and vitagenic educational opportunities in the development of speech communicative competencies of future educators, the dominant aspects and content of vitagenic education in the use of educational technologies, the concept of pedagogical design and the degree of its application.

Keywords: Communicative competence, vitagenic education, pedagogical design, opportunity, innovation, technology, speech, future educator.

**BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING NUTQIY KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DIZAYN VA
VITAGEN TA’LIM IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH JARAYONINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak pedagoglarning nutqiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik dizayn va vitagen ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy faoliyatlar va ularning mazmuni, ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda vitagen ta’limning ustunlik jihatlari va mazmuni, pedagogik dizayn tushunchasi va uning qo‘llanilish darajasi borasida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ kompetensiya, vitagen ta’lim, pedagogik dizayn, imkoniyat, innovatsiya, texnologiya, nutq, bo‘lajak pedagog.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА И ВИТАГЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ВОЗМОЖНОСТЕЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

Аннотация: В статье рассматриваются практическая деятельность по совершенствованию процесса использования педагогического дизайна и витагенных образовательных возможностей в развитии речевых коммуникативных компетенций будущих педагогов и их содержание, приоритетные аспекты и содержание витагенного образования в использовании образовательных технологий, понятие педагогического дизайна и степень его применения.

Ключевые слова: Коммуникативная компетентность, витагенное образование, педагогический дизайн, возможности, инновации, технологии, речь, будущий педагог.

Nutq insonlar aro muloqotning muhim qismi bo'lib, uning har bir xatti-harakatining mazmunini yoritib beradi. Inson qaysi faoliyat bilan shug'ullanmasin nutqiy ko'nikmalar mazkur faoliyatning samaralilik darajasiga ta'sir qiladi. Buning sababi insonning tafakkuri nutq asosida mukammallashgan va munosabat qura olish qobiliyati insonning har tomonlama rivojlanishini ta'minlab beradi. Ayniqsa, kasbiy imkoniyatlarni kengaytirishda muloqot vositalaridan o'rinli foydalana olishni o'zida shakllantirish bo'lajak mutaxassisdan talab qilinadigan muhim xususiyat sanaladi.

Кommunikativ kompetentsiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.[1] Pedagoglik kasbi egalarida nutqiy kommunikativ kompetensiyaning tarkib toptirilganligi juda muhim talab hisoblanadi. Shu bois har bir pedagogika universitetlarida bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ulardagi nutqiy imkoniyatlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Talabalarning nutqiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'limning rivojlanib kelayotgan imkoniyatlaridan foydalanish eng optimal yechim sifatida baholanib, ta'limiy jarayonlar mazmunini yanada takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Vitagen pedagogika – o'quvchilarning hayotiy tajribasidan foydalanishga asoslangan pedagogika. Vitagen ta'lim – o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida haqiqiy hamkorlik o'rnatilishiga, ta'lim olish va mustaqil o'qishning qo'shilishiga, sub'ekt-ob'ekt munosabatning sub'ekt-sub'ekt aloqaga aylanishiga qaratilgan amaliy yo'l. Hayotiy (vitagen) tajriba – shaxs mulkiga aylangan, uzoq muddatli xotira zahiralarda saqlanadigan, adekvat vaziyatlarda (talab etilganda) dolzarb bo'la oladigan vitagen ma'lumot. Vitagen tajriba inson tomonidan boshidan o'tkazgan, idrok xotirasi, hissiy xotira va xulqiy xotira bilan bog'liq va uning uchun yetarlicha qiymatga ega bo'lgan fikrlar, tuyg'ular, harakatlar qotishmasi.[2]

Vitagen ta'lim – ta'lim maqsadlarida shaxsning hayotiy tajribasini, uning intellektual-psixologik potentsialini aktuallashtirishga asoslangan o'qitish usuli. Vitagen ma'lumotning vitagen tajribaga aylanishi bosqichlari: birinchi bosqich – differentsiallashtirilmagan, ajratilmagan vitagen ma'lumotni birlamchi idrok etish; ikkinchi bosqich – baholovchi-filtrlovchi (shaxs, dastlab filogenezda, ya'ni umuminsoniy gnostik pozitsiyadan, keyinchalik ontogenezda, ya'ni shaxsiy ahamiyatlilik pozitsiyasidan kelib chiqqan holda olgan ma'lumotning ahamiyatliligini aniqlaydi, ma'lumotlarni saralash ontogenetik sodir bo'ladi); uchinchi yo'l-yo'riq ko'rsatadigan bosqich (shaxs, o'z-o'zidan, yoki ongli ravishda ma'lum bir ma'lumotni taxminiy – saqlash muddatgacha eslab qolishni belgilaydi, saqlash muddatlari ma'lumotning ahamiyatliligi, hayotiy va amaliy maqsadga qaratilganligi bilan aniqlanadi – bu ma'lumotning o'zlashtirilganlik darajasini ham aniqlab beradi). Ma'lumotning o'zlashtirilganlik darajalari:

1-daraja – operatsion (sust, —har ehtimolga qarshil eslab qolishga yo'l tutish, ushbu ma'lumot ta'lim jarayonida shaxsning o'zini rivojlantirishida eng kam qiymatga ega);

2-daraja – funktsional (ma'lumotni ancha uzoq vaqtga eslab qolishga yo'l tutish – tanlov vaziyatlarida ishlatiladi);

3-daraja – tayanch (uzoq muddatga xotirada saqlash, ta'lim jarayonida o'zini rivojlantirishda eng katta ahamiyatga ega). Darajalar o'zaro ta'sir qilishi, biridan biriga o'tishi, turli ahamiyatlilik darajalarga ega bo'lishi mumkin.[3]

Vitagen ta'lim tibbiyot pedagogikasida paydo bo'lgan bo'lsada, ta'limning har qaysi foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Shu bois oliy ma'lumotli bo'lajak pedagoglarda nutq potensialini rivojlantirishda muhim yondashuv bo'la oladi. Talabalar kommunikativ kompetensiyasining rivojlanishi ularni kelajakda o'quvchi yoki tarbiyalanuvchilar bilan samarali ta'limiy muloqotni yarata olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Har bir inson o'zining hayotiy tajribasini boshqalar bilan o'rtoqlashish va'ziyati vujudga kelganda, uni to'laqonli ochib berishga intiladi. Ta'limda hayotiy tajribalarga suyanish o'quvchi e'tiborini jalb qilish yo'llaridan biri hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni aniqlashtirish esa o'quvchi layoqati va intilishini bilib olish imkonini beradi. O'qituvchining har bir talaba yoki o'quvchi ichki imkoniyatini to'g'ri tushunishi va baholashi uning kelajakda o'z faoliyatini to'g'ri tanlashiga ko'mak berishda to'g'ri yondashuvni tanlash imkoniyatini oshiradi. Pedagogning darslar va faoliyatlar mazmunini boyitishda ta'lim resurlarini tayyorlashga bo'lgan e'tibori ham zarur holat hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim resurslarini yaratishda ularning mazmuni va tuzilish dizayniga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim resurlarini yaratishdagi ijodiy harakatlar pedagogik dizayn deb atalib, o'quvchining o'zlashtirayotgan ma'lumotlarini tushunarli va qiziqarli darajada o'rganib chiqishga yordam beradi.

Pedagogik dizayn – bu onlayn ta'limni tashkil etishning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Pedagogik dizayn kontentni aniq strategiyali, maqsadli va natijalarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan kursga aylantirish imkoniyatini beradi.[4]

Pedagogik dizayn tamoyillari onlayn ta'lim jarayonida tinglovchilarni o'quv jarayoniga jalb qilishga yordam beradi. Samarali onlayn kurs talabalarning o'rganish tamoyillarini, inson ongining qabul qila olish darajasini va ularning motivatsiyasini hisobga olgan holda yaratilishi lozim. Pedagogik dizayn tamoyillari talabalar ortiqcha dalillar va ma'lumotlar bilan chilg'imasliklari uchun taqdim etiladigan ma'lumotlarni tartibga solishga yordam beradi. Pedagog onlayn kursga aniq maqsadlarga erishishga imkon beradigan bilim va ko'nikmalarni kiritadi va maqsadsiz barcha elementlarni olib tashlaydi. Tizimli ishlaydigan kurs yaratuvchisi nafaqat natija oladi, balki ularni baholaydi.[5]

Pedagog va talaba o'zaro muloqotini yaxshilashga qaratilgan kommunikativ kompetensiyalarni va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish uchun ta'lim strategiyalari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda vitagen ta'lim imkoniyatlari jarayon ko'lamini sayqallashtirishga xizmat qilsa pedagogik dizayn yondashuvining maqsadi o'zlashtirish resurslarining qiziqarli tusga ega bo'lishiga ko'maklashishdir. Bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kompetensiyani shakllanishida mazkur ikki jihat ularning kasbiy layoqatini oshirishga va kasbga nisbatan qiziqishlarni orttirib, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan stresslarni oldini olishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yoshlarni kasbga qiziqtirish va yangi bilimlarni egallashga nisbatan intilishlarini kuchaytirish muhim muammo sanaladi. Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan qiziqish, turli kontentlarni kuzatish va yaratish asosiy qiziqish manbaiga aylanmoqda. Shu bois

pedagogika imkoniyatlari va ta'lim texnologiyalaridan yanada kengroq va tizimli foydalanish pedagoglar zimmasida turgan jiddiy masala hisoblanadi.

Innovatsion ta'lim jarayoni qanaqa komponentlarga asoslanganligini ko'rib asoslab chiqadigan bo'lsak, innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Zamonaviy, yaxshi qurilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeligiga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi vakolatlardir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.
2. O'qitishda zamonaviy, innovatsion usullarni qo'llash. Bunday usullar bo'lajak mutaxassisning kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quvchilarni faol o'quv va amaliy faoliyatga jalb etishga, o'quv jarayonida tashabbus ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quv dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.
3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U ta'limning yangi shakllari va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.[6]

Pedagogik dizayn ta'lim jarayonini yanada samarali va sifatli tashkil etishda

muhim rol o'ynaydi. Bu, ayniqsa, tinglovchilar, professor-o'qituvchilar va o'quv kontenti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta'minlanadigan onlayn ta'limda muhimdir. Kelajakda raqamli ta'lim resurslarini yaratishni rejalashtirayotgan professor -o'qituvchilar bu jarayonning moliyaviy va inson resurslari bilan bir qatorda juda ko'p vaqt talab qilishini tushunishi lozim. Faqat pedagogik dizaynning har bir bosqichida batafsil, yaxshi rejalashtirilgan mehnat orqali sifatli raqamli resurs yaratiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi bu tizimli jarayon hisoblanadi. Davrlar rivojlanib borgan sayin ta'lim uslublari ham takomillashib boradi. Shu bois har bir pedagog o'zining kasbiy kompetentligini oshirib borishi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashi lozim. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislar kommunikativ kompetensiyasining rivojlantirilishi ularni kelajakdagi kasbiy jarayonga to'laqonli kirisha olishlarini ta'minlaydi. Vitagen ta'lim texnologiyasi bu talabalarda ijtimoiy intellektni shakllantiradi. Har qanday muhitga to'g'ri moslashish imkoniyatini oshiradi.

An'anaviy ta'lim tizimida bilimlarni uzatish va o'zlashtirish jarayoni amalga oshadi. O'qituvchi bilimlarni o'quvchilarga uzatadi, ular esa bilimlarni o'zlashtirganliklarini namoyon qiladi. Bunday vaziyatlarda jarayon markazida bilimlarni uzatish turadi. O'quvchi o'zi uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni o'zlashtirgandagina ular haqiqiy qadriyatga aylanadi. O'quvchi o'zi his etgan, bilgan va amaliy faoliyatda qo'llay oladigan bilimlarga ular uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday bilimlar o'quvchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Shu tariqa, shaxsning hayotiy tajribasiga tayangan holda ta'lim jarayonida taqdim etilgan bilimlarni qadriyatga aylantirish alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. Toshkent – 2018, 9 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, “Tibbiy ta’limda interaktiv texnologiyalar - 2023: dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsiyalar” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari., 10,11 b.
3. <https://repository.tma.uz/xmlui/bitstream/handle/1/6400/2023.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
4. “Xalq ta’limi” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali, 2020 yil, 5-son, 28 b.
5. file:///C:/Users/PC_Clinic/Downloads/an-anaviy-va-raqamli-ta-limda-pedagogik-dizayn-va-uning-xavfsizligi.pdf
6. Sh.Adashboev. Oliy ta’lim tizimida raqamli ta’limning didaktik tamoyillari. UzACADEMIA. Ilmiy uslubiy jurnali, №9 20/01/2021, 14-19 b.
7. file:///C:/Users/PC_Clinic/Downloads/talabalarning-kommunikativ-kompetensiyalarini-rivojlantirishda-zamonaviy-innovatsion-texnologiyalarni-tutgan-o-rni.pdf